

FAROVON HAYOT HAQIDAGI FALSAFIY TAFAKKURNING SARCHASHMALARI

Hasanov Rajabboy To‘xsanovich

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Yunoniston falsafasidan boshlab zamonaviy nazariyalarigacha “farovon hayot” tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tahlil etilgan. Gedonizm va evdomonizm ta’limotlari asosida farovon hayotning huzur-halovat va oqillik bilan bog‘liq talqinlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘rta asr Sharq va G‘arb mutafakkirlari qarashlari asosida farovonlikning ma’naviy va diniy asoslari yoritilgan. Farovon hayotni inson ehtiyojlarining qondirilishi, ruhiy kamolot va ijtimoiy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq kompleks tushuncha sifatida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, ta’limot, qadriyat, falsafa, axloq, ma’naviyat, adolat, barqarorlik, madaniyat, siyosat.

ИСТОЧНИКИ ФИЛОСОФСКОГО МЫШЛЕНИЯ О БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ

Хасанов Раджаббой Тухсанович

**Соискатель Бухарского государственного педагогического
института**

Аннотация: В статье проанализированы формирование и развитие понятия «благополучная жизнь» от философии Древней Греции до современных теорий. Рассматриваются интерпретации благополучной жизни через призму учений гедонизма и эвдемонизма, связывающих её с наслаждением и разумностью. Также раскрыты духовные и религиозные основы благополучия на основе взглядов мыслителей Средневекового Востока и Запада. Благополучная жизнь представлена как комплексное понятие, тесно связанное с удовлетворением человеческих потребностей, духовным совершенствованием и социальной стабильностью.

Ключевые слова: общество, учение, ценности, философия, этика, духовность, справедливость, стабильность, культура, политика.

SOURCES OF PHILOSOPHICAL THOUGHT ON A PROSPEROUS LIFE

Khasanov Rajabboy Tukhsanovich

Independent researcher at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the formation and development of the concept of a "prosperous life" from Ancient Greek philosophy to modern theories. It examines interpretations of a prosperous life through the lens of hedonism and eudaimonism, which associate it with pleasure and rationality. The article also highlights the spiritual and religious foundations of prosperity based on the views of thinkers from the Medieval East and West. A prosperous life is presented as a complex concept closely linked to the satisfaction of human needs, spiritual perfection, and social stability.

Keywords: society, teaching, values, philosophy, ethics, spirituality, justice, stability, culture, politics.

KIRISH

Qadimgi Yunonistonning qator ta'limotlarida ham "farovon hayot" tushunchasi tavsiflanadi. Masalan, gedonizm ta'limoti vakillari inson hayotining oliy maqsadini huzur-halovatga erishish bilan bog'laydilar. Ularning ta'kidiga ko'ra, aynan huzur-halovat inson hayotining oliy maqsadi va so'nmas qadriyatidir [1]. Gedonistlar fikricha, farovon hayot - halovat va azob o'rtasidagi oqilona muvozanatga erishilgan hayotdir. Ular inson ayni lahzalarini bahramand qilish va azob-uqubatdan xalos bo'lish orqaligina saodatga, farovon hayotga erishishi mumkin, deb hisoblaydilar. Bunda Kirena falsafa maktabi asoschisi Aristipp jismoniy halovatni birinchi o'ringa qo'ysa [2], Afinada istiqomat qilib, o'z ta'limotini shakllantirishga muvaffaq bo'lgan Epikur osoyishtalik hamda ruhiy xotirjamlikka ustuvorlik beradi [3]. Ko'rinadiki, gedonizm vakillari farovon hayotni insonning nafaqat moddiy, balki ma'naviy qoniqishi bilan ham bog'laydilar.

Insonning farovon hayoti haqidagi o'ylarni evdomonizm ta'limoti vakillari qarashlarida ham ko'rish mumkin. Bu ta'limot namoyondalari inson hayotining

asosiy maqsadini farovon hayotga erishish bilan bog'laydilar. Jumladan, Aristotel farovon hayotning asosiy belgisini baxt-saodatdan izlaydi. Boshqacha aytganda, mutafakkir baxtni oqillik, fozillik bilan tashkil etilgan, shu sababdan farovon ko'rinish olgan hayotning tashqi ifodasi sifatida ta'riflaydi. Baxt, uning fikriga ko'ra, bu vaqtinchalik halovat emas, balki mazmundor, shaxsiy salohiyatlarni ro'yobga chiqarish imkonini beradigan hayotdir [4].

O'rta asrlarda ham Sharq, ham G'arb falsafasida farovon hayot tushunchasi muhim falsafiy va diniy tushuncha sifatida ta'riflandi. Masalan, Abu Nasr Forobiy farovon hayotni "aql va fazilat orqali komil jamiyatda yashab, ruhiy barkamollikka erishish" jarayoni sifatida tavsifladi [5]. Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlar farovonlik omilini qalb pokligidan izladilar [6]. Mashhur xristian teologi Foma Akvinskiy esa farovonlik ifodasi bo'lmish haqiqiy baxtni Xudo bilan birlashish sifatida talqin etadi [7].

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada farovon hayot tushunchasi va uning turli falsafiy, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazarlardan ta'rifi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Metodologiya sifatida tarixiy, tizimli va solishtirma tahlil usullari qo'llaniladi. **Tarixiy tahlil** yordamida qadimgi Yunoniston va o'rta asrlar falsafasidagi farovon hayot tushunchalari va uning rivojlanishi yoritiladi. Bu usul orqali qadimdan zamonamizgacha bo'lgan davrlar davomida farovon hayotga bo'lgan qarashlarning qanday o'zgarib borganini ko'rish mumkin.

Tizimli tahlil metodi yordamida, farovon hayotni tashkil etuvchi omillar – moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning o'zaro aloqalari va ularning jamiyatdagi o'rni o'rganiladi. Bu metod ijtimoiy tizimning barqarorligi va muvozanatiga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlashga yordam beradi. Tizimli yondashuv orqali farovon hayotning turli elementlari bir-biriga bog'langan holda ta'kidlanadi va ularning jamiyatdagi umumiy o'rni belgilab olinadi. **Solishtirma tahlil** esa farovon hayot tushunchasining turli falsafiy va sosiologik maktablarda qanday talqin etilishi va ularning bugungi kunda qanday ahamiyat kasb etishi borasida amalga oshiriladi. Bu metod yordamida utilitarizm,

marksizm, tarkibiy funksionalizm, modernizatsiya nazariyasi kabi yirik maktablarning farovon hayot haqidagi qarashlari tahlil qilinadi va ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini ko'rsatiladi.

Shu bilan birga, maqolada metodologik yondashuvlar orqali farovon hayotning nafaqat individning, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarini aniqlashga intilish ko'zda tutilgan. Maqsad, farovon hayot tushunchasining o'ziga xos va keng qamrovli tahlilini taqdim etishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XIX-XX asrlarda faylasuflarning farovon hayot haqidagi qarashlari ancha chuqurlashdi hamda murakkablashdi. Shu boisdan turli falsafiy va sosiologik nazariyalar, ta'limotlarda nafaqat farovon hayotning mazmuni va belgilariga doir, balki uni ta'minlash yo'llariga oid mulohazalar ham paydo bo'la boshladi. Bu o'rinda avvalo utilitarizm nomi bilan tanilgan axloqiy nazariyani tilga olmoq joiz. Utilitarizm Angliyada XVIII asr oxirida yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyingi asrdagina tizimli ta'limot sifatida qaror topdi. Ushbu ta'limot vakillari inson hayoti va faoliyati sifatini uning ma'naviy qiymatiga qarab baholashga urinadilar. Ularning fikriga ko'ra, neki odam bolasiga baxt-saodat keltirsa, shu narsa ma'naviy jihatdan qiymatlidir. Ana shunday qiymatli jihatlarga boy hayotnigina farovon deya atash mumkin. Utilitarizm namoyondalari ijtimoiy farovonlikka erishish yo'llariga doir qator qimmatli fikrlarni ilgari surdilar, ular bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Masalan, utilitarizm asoschisi bo'lgan ingliz faylasufi, huquqshunosi va sosiologi Iyeremiya Bentam (1748–1832) Epikur kabi farovon hayotni halovat va azob o'rtasidagi oqilona muvozanatga erishilgan turmush sifatida tavsiflaydi. Biroq Epikurdan farqli o'laroq, Bentam farovon hayotga faqat birgalikda, boshqa jamiyat a'zolari bilan hamjihatlikda erishish mumkin, deb hisoblaydi [8].

Utilitarizmning klassik namoyondalaridan biri ingliz faylasufi va qisodchisi Jon Styuart Mill (1806–1873) Iyeremiya Bentamning g'oyalarini yanada rivojlantirdi. Millning utilitarizm rivojida asosiy hissasi shundaki, u insonga huzur bag'ishlaydigan lazzatlarni sifatlan tasniflashga muvaffaq bo'ldi. Uning

fikriga ko'ra, bu lazzatlar bir xil emas – u larning jismoniy va ma'naviy turlari mavjud. Buning ustiga, ruhiy, intellektual va ma'naviy lazzatlar hamisha jismoniy lazzatlardan ustun turadi va insonga ko'proq halovat keltiradi [9].

Millning fikricha, farovon hayot nafaqat azob-uqubatdan qochish, balki ma'naviy kamolot, axloqiy yuksalish va shaxsiy erkinlikni ta'minlash bilan bog'liq. U ijtimoiy adolatni ham utilitaristik tamoyillar orqali asoslashga urinadi, ya'ni farovon hayot adolat hukmron bo'lgan, inson haq-huquqlari va erkinliklari kafoatlangan jamiyatlardagina vujudga kelishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, davlat va jamiyatning asosiy vazifasi har bir insonga o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishdan iborat [10].

Insonning farovon hayotini ta'minlash bilan bog'liq masalalar marksizm ta'limotida mutlaqo boshqa kontekstda tavsiflab berildi. Ma'lumki, marksizm ta'limotining asosiy g'oyalari XIX asrda Germaniyada Karl Marks (1818-1883) va Fridrix Engels (1820-1895) tomonidan ifodalab berilgandi. Bu ta'limot tarixiy taraqqiyotni moddiy ishlab chiqarish vositalari va mehnat munosabatlarining takomil topishi jarayon sifatida tasvirlab berdi. K.Marks va F. Engels kapitalistik jamiyatda mavjud bo'lgan ichki ziddiyatlarni kishilarning farovon hayotini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan asosiy omil deb biladilar [11]. Karl Marksning fikriga ko'ra, kapitalistik jamiyatda inson ekspluatatsiyaga duch kelgani tufayli o'z mehnatidan begonalashadi. U ijodkorlikka, jamoaviy faoliyatga undovchi mehnat sharoitlariga erishganidagina o'z farovon hayotini ta'minlay oladi. Buning uchun sinfiy jamiyat o'rniga umumiy mulkchilikka asoslangan kommunistik jamiyatni shakllantirish zarur, deb uqdiradi nemis iqtisodchisi [12].

Keyinchalik marksizm ta'limoti g'oyalari Vladimir Ilich Lenin (1870–1924) tomonidan Rossiya sharoitlariga moslashtirib talqin qilindi. V. Leninning fikriga ko'ra, farovon hayotga erishish uchun burjuaziya tuzumi yo'q qilinib, proletar diktaturasi o'rnatilishi, davlat tizgini esa ishchilar sinfi qo'lga topshirilishi lozim. boshqarishi lozim. Lenin farovonlikni mehnatkash omma manfaatlarini ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, turmush sharoitlarini yaxshilash va ekspluatatsiyani bartaraf etish orqali ta'minlash mumkin, deb hisoblaydi. Uning “Davlat va inqilob”

asarida keltirilishicha, haqiqiy erkinlik va farovonlik faqat sinfsiz jamiyatda amalga oshishi mumkin [13].

XX asrning ikkinchi yarmida farovon hayot mazmuni va belgilari, uni ro'yobga chiqarish yo'llariga bag'ishlangan mutlaqo yangicha qarashlar qaror topa boshladi. Xususan, o'tgan asrning 60-yillarida AQSHda tarkibiy funksionalizm nazariyasi qaror topdi. Aslida ushbu nazariyaning markaziy g'oyalari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Fransiyada sosiolog Emil Dyurkgeym (1858-1917) tomonidan ifodalab berilgandi. Lekin XX asrning ikkinchi yarmida ushbu nazariya qator faylasuflar va sosiologlar tomonidan yanada boyitildi. Nazariya namoyondalari turkum qimmatli g'oyalarni ilgari surdilar. Xususan, ular jamiyatni muayyan muvozanatni va tartibni talab qiluvchi yaxlit tizim sifatida tasvirlab berdilar. Ularning fikriga ko'ra, jamiyat turli institutlardan tashkil topgan bo'lib, bu institutlarning har biri muayyan funksiyalarni bajaradi, ana shu ijro ijtimoiy barqarorlik va integratsiyani ta'minlaydi. Jamiyatning har bir instituti – oila, ta'lim, din, davlat – ijtimoiy tizimning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi [14].

Tarkibiy funksionalizmning yorqin namoyondalaridan biri amerikalik sosiolog Tolkott Parsons (1902–1979) farovon hayotni jamiyatdagi har bir individning o'z ijtimoiy funksiyalarini samarali bajarishi bilan bog'laydi. Uning ta'kidiga ko'ra, farovonlik – ijtimoiy tizimning barqarorligi va muvofiqlashgan faoliyati mahsulidir. Individ o'z ijtimoiy roli va maqsadini aniq bilishi, ijtimoiy jarayonlar va mehnat faoliyatida faol qatnashishi orqaligina farovon hayotga erishishi mumkin. T. Parsons farovon hayot individ va jamiyat o'rtasidagi muvozanat natijasi ekanligini alohida uqdiradi [15]. Tolkott Parsonsning g'oyalari keyinchalik amerikalik sosiologlar Robert Merton (1910-2003), Kingsli Devis (1908-1997), Uilbert Mur (1914-1987) tomonidan har tomonlama rivojlantirildi. Tarkibiy funksionalizm bugun ham farovon hayotni ta'minlash yo'llariga bag'ishlangan ahamiyatli nazariyalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Farovon hayot mazmuni va uni vujudga keltirish omillariga bag'ishlangan sosiologik nazariyalardan yana biri modernizatsiya nazariyasi deb nomlanadi.

Unga ko'ra, an'anaviy jamiyatlar sanoatlashuv, urbanizatsiya, ta'lim va siyosiy institutlar rivoji orqali "zamonaviy" holatga o'tishi mumkin. Modernizatsiya jarayoni, nazariya tarafdorlarining fikricha, rivojlangan G'arb jamiyatlari modeli asosida barcha mamlakatlar uchun universal va tavsiya etiladigan yo'l sifatida qaraladi. Mazkur nazariyani shakllantirishda Uolt Rostou (1916-2003), Daniyel Bell (1919-2011) kabi olimlar faol ishtirok etdilar [16].

Modernizatsiya nazariyasining yirik namoyondalaridan biri Uolt Rostou hisoblanadi. Uning 1960 yilda yozilgan "Iqtisodiy o'sish bosqichlari: Nokommunistik manifest" nomli asarida keltirilgan besh bosqichli taraqqiyot modeliga ko'ra, har bir jamiyat "an'anaviy jamiyat"dan boshlab, "ommaviy iste'mol" jamiyatigacha bo'lgan bosqichlar orqali harakatlanadi. Rostou fikricha, farovon hayot – bu ommaviy iste'mol, texnologik innovatsiyalar va ta'limning keng tarqalgan holatidir. Uningcha, bu bosqichga yetgan jamiyatlarda fuqarolar turmush darajasi sezilarli ravishda yuksaladi [17]. Modernizatsiya nazariyasining asosiy g'oyalari Daniyel Bellning 1976 yilda e'lon qilingan "Kapitalizmning madaniy ziddiyatlari" nomli asarida yanada rivojlantirildi. Uning fikricha, farovon hayot nafaqat moddiy ne'matlar, balki ma'naviy qadriyatlar va madaniy barqarorlik bilan chambarchas bog'liqdir. Bell postindustrial jamiyatda bilim, innovatsiya va xizmat sohalari asosiy ishlab chiqarish kuchlariga, inson hayoti farovonligi mezoniga aylanishini ta'kidlaydi [18].

Yuqorida tilga olingan falsafiy va sosiologik nazariyalar "farovon hayot" tushunchasi mazmunini mufassal ta'riflash, uning tarkibiy qismlarini ifodalash, uni shakllantiruvchi omillarni umumlashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, farovon hayot – insonning moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlari qondirilgan, barqaror shaxsiy rivojlanishi ta'minlangan holdagi turmush tarzi va sifatini ifodalovchi tushunchadir.

XULOSA

Farovon hayotning mazmuni va mohiyati, belgilari va mezonlariga doir tasavvurlar tarixiy taraqqiyot davomida muttasil takomil topa borgan. Tasavvurlar evolyusiyasi turli davrlarda turli falsafiy va sosiologik nazariyalar va ta'limotlar

(hinduizm, konfusiyachilik, daosizm, zardo'shtiylik, gedonizm, stoisizm, evdomonizm, tasavvuf, sxolastika, utilitarizm, marksizm, tarkibiy funksionalizm, modernizatsiya nazariyasi, adolat nazariyasi, postmodern nazariyasi) tarkibida farovon hayot to'g'risidagi qarashlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Bu qarashlar "farovon hayot" tushunchasi mazmunini aniqlashda nazariy-metodologik asos vazifasini o'taydi.

Farovon hayot – insonning moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlari qondirilgan, barqaror shaxsiy rivojlanishi ta'minlangan holdagi turmush tarzi va sifatini ifodalovchi tushunchadir. Uning moddiy jihati inson mol-mulki, ish bilan bandligi, moliyaviy resurslari, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarida, ma'naviy-ruhiy jihati esa hayotiy maqsadlarning mavjudligi, insonning o'z qadr-qimmatini his etishi, ruhiy xotirjamligi, e'tiqodning mavjudligida o'z ifodasini topadi. Farovon hayot maqbul ekologik vaziyat, iqtisodiy barqarorlik, oqilona ijtimoiy siyosat, zamonaviy ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari, ijtimoiy adolat, sog'lom ma'naviy muhit, shaxsiy intilishlar kabi omillar ta'sirida qaror topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. История этических учений. Учебник для вузов. - М.: Гардарики, 2003. - С. 401-410.
2. Аристипп. // Большая Российская энциклопедия. // bigenc.ru.
3. Эпикур. Письмо к Менекею. // Античная философия. - М.: Мысль, 1994. - С. 221-223.
4. Аристотель. Никомахова этика. // Соч в 4-томах. Том 4. - М.: Мысль, 1984. - С. 172-190.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 1993.
6. Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. - Toshkent: Asian Book House, 2023; Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: G'ulom nomidagi adab. va san'at nashr, 1991.
7. Аквинский Ф. Сумма теологии. - Киев: Эльга Ника-центр, 2005.

8. Bentham J. An Introduction to the Principles of Morals and Legislation. // www.earlymoderntexts.com/assets/pdfs/bentham1780.pdf
9. Милль Дж.С. Утилитаризм. Теория нравственности, основанная на принципе пользы, или наибольшего счастья. - Ростов-на-Дону: Донской издательский дом, 2013.
10. Mill J. S. On Liberty. // eet.pixel-online.org/files/etranslation/original/Mill,%20On%20Liberty.pdf.
11. Маркс К., Энгель Ф. Манифест коммунистической партии. // М.: Политиздат, 1974.
12. Маркс К. Экономическо-философские рукописи. // Сочинения. Том 42. - М.: Политиздат, 1974. - С. 41-174.
13. Ленин В.И. Государство и революция. // Полн.собр.соч. Том 33. - М.: Политиздат, 1969. - С.1-120.
14. Giddens E. Sosologiya. - Toshkent: Sharq, 2002.- В.425-535.
15. Parsons T. The Social System. // voidnetwork.gr/wp-content/uploads/2016/10/The-Social-System-by-Tal-cott-Parsons.pdf.
16. Tipps D. C. Modernization Theory and the Comparative Study of Societies. // Comparative Studies in Society and History, 1973, №2. - Pp. 199–226.
17. Rostow W. W. The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. - Cambridge: Cambridge University Press, 1960.
18. Bell D. The Cultural Contradictions of Capitalism. - New York: Basic Books, 1976.